

### **3-SINFLARDA BADIY ASARLAR O'QISHGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O'RNI**

*Rasulova Zohida Sindarovna*

**Buxoro innovatsiyalar universiteti**

**Annotatsiya.** Mazkur tezisdagi 3-sinf o'quvchilarini badiiy asarlarga qiziqtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni yoritilgan. Boshlang'ich ta'limda badiiy adabiyotning ahamiyati, o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi roli ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonida AKTdan foydalanishning samarali usullari, jumladan, audiokitoblar, multimediali vositalar va interaktiv o'yinlarning ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, badiiy adabiyot, axborot texnologiyalari, AKT, 3-sinf o'quvchilari, kitobxonlik, interaktiv metodlar, raqamli ta'lim

**Аннотация.** В данной работе рассматривается роль информационно-коммуникационных технологий в формировании интереса учащихся 3 класса к художественной литературе. Проанализировано значение художественных произведений в начальном образовании и их влияние на развитие читательской культуры учащихся. Особое внимание уделено эффективным методам использования ИКТ в образовательном процессе, таким как аудиокниги, мультимедийные средства и интерактивные игры.

**Ключевые слова:** начальное образование, художественная литература, информационные технологии, ИКТ, учащиеся 3 класса, читательская культура, интерактивные методы, цифровое образование.

**Abstrakt.** This paper examines the role of information and communication technologies (ICT) in developing interest in literary works among 3rd-grade students. The importance of literary texts in primary education and their impact on students' reading culture are analyzed from a pedagogical perspective. The study highlights effective methods of using ICT in the educational process, including audiobooks, multimedia tools, and interactive activities.

**Keywords:** primary education, literary works, information technology, ICT, 3rd-grade students, reading culture, interactive methods, digital education.

Hozirgi globallashuv davrida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. 3-sinf o'quvchilari tasavvuri kengayib, mustaqil fikrlashga o'ta boshlaydigan bosqichda bo'lgani sababli, ularni badiiy asarlarga qiziqtirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2020–2025-yillarda ta'lim sifatini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha qabul qilingan Prezident farmon va qarorlari bu borada muhim dasturiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida — jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan,

mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi muhim vazifalar belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 13 sentabrdagi —Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi PQ-3271-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi —Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 1059-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha strategiyalar belgilab berilgan. Xususan:

- 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasida ta'lim sohasini raqamlashtirish, elektron ta'lim resurslarini kengaytirish vazifalari belgilab berilgan;
- 2021-yildagi qarorlarda umumta'lim maktablarini zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash, o'qituvchilarning AKT kompetensiyalarini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan;
- 2022–2025-yillarda esa elektron kutubxonalar, onlayn platformalar va masofaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur farmon va qarorlar natijasida maktablarda:

- elektron darsliklar joriy etildi;
- milliy ta'lim platformalari yaratildi;
- o'quvchilarning mustaqil o'qish imkoniyatlari kengaydi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy adabiyot bolalarning nafaqat nutqini, balki tafakkurini, estetik didini va axloqiy qarashlarini rivojlantiradi. Badiiy asarlar orqali bolalarda yaxshilik va yomonlik, do'stlik, vatanparvarlik kabi tushunchalar shakllanadi. 3-sinf o'quvchilari uchun ertaklar, hikoyalar, she'rlar ayniqsa qiziqarli bo'lib, ular orqali bolalar obrazli fikrlashni o'rganadi. Ammo zamonaviy bolalarning e'tibori ko'proq raqamli vositalarga qaratilganligi sababli, an'anaviy o'qitish usullari yetarli samara bermasligi mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Interaktiv doskalar, мультимедиа taqdimotlar, elektron darsliklar, audio va video materiallar o'quvchilarning diqqatini jalb etadi. AKTdan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi an'anaviy darslarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Ayniqsa, badiiy asarlarni o'rganishda video lavhalar, animatsiyalar va audiokitoblar bolalarning qiziqishini oshiradi [Qayumxo`jayeva Yo 23s]. Ushbu maqolada 3-sinf o'quvchilarini badiiy asar o'qishga o'rgatish uchun bir nechta usullar taqdim etilmoqda. Masalan:

- ertaklar asosida yaratilgan animatsiyalar;
- qahramonlar ovoz bilan jonlantirilgan audiomatnlar;
- interaktiv o'yinlar orqali syujetni mustahkamlas;
- qahramonlar va ertakdagi tasviriy ifodala bularning barchasi o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi.

Bu esa badiiy asarlarga qiziqishni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

1. Audiokitoblardan foydalanish

Bolalar matnni eshitish orqali tezroq qabul qiladi va mazmunni chuqurroq anglaydi. Tasavvuri boyib boradi. Boshlang'ich sinflarda eshitish orqali tafakkuri boyib boradi.

2. Multfilm va videodarslar

Badiiy asar asosida yaratilgan multfilmlar bolalarda obrazli tafakkurni rivojlantiradi, kreativ yondoshishga harakat qiladi

3. Interaktiv o'yinlar

Savol-javoblar, testlar va syujet asosidagi o'yinlar o'quvchini faol ishtirok etishga undaydi, bog'lanishli matn tuzishga yordam beradi. Onlayn platformalar orqali turli badiiy asarlarga oson kirish imkoniyati yaratiladi.

AKTdan maqsadli va me'yorida foydalanish o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ammo bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitob o'qishning intellektual, psixologik va fiziologik jihatdan rivojlanishiga erdam beruvchi ta'sirlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kitob o'qish orqali o'quvchilarning: nutqi rivojlanadi; boyiydi; tasavvuri o'sadi; tafakkuri rivojlanadi; xotirasi mustahkamlanadi; hissiyoti (hissiy sifatlar, xususan, hamdardlik hissi) tarbiyalanadi; ijtimoiy idroki shakllanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, shaxsda ijtimoiy idrokning shakllanishi unda yashovchanlik qobiliyatining rivojlanishini ta'minlaydi [Mo'minova D diss.2020y ].

Xulosa qilib aytganda, 3-sinf o'quvchilarini badiiy asarlarga qiziqtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. AKT vositalari orqali darslarni qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etish mumkin. Prezident farmonlari asosida ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar esa bu jarayonni yanada jadallashtirmoqda. Shu bois, o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni chuqur o'zlashtirib, ularni badiiy adabiyot o'qitish jarayoniga samarali integratsiya etishlari zarur. Natijada, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyati shakllanadi, ularning ma'naviy-axloqiy dunyosi boyiydi va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi, kreativlik, kritivlik, mantiqiy-tanqidiy fikrlash jarayoni shakllanib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mo'minova.D.A. O'quvchilarni kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish nomli dissertatsiya 2020y

2. Qayumxo'jaeva Yo. O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, 2007. – 12-48-b.

3. Уралов, А. Б., & Бердалиева, С. Х. (2020). МОРФЕМАЛАР ТИЗИМИДА АГГЛЮТИНАЦИЯ ВА ФУЗИЯ МУНОСАБАТИ. Интернаука, (20-4), 81-82.

4. Уралов, А. Б., & Умарова, Б. Х. (2020). ТУРКИЙ ТИЛЛАРДА МОРФЕМАЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ. Интернаука, (20-4), 77-78.